

**NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Ped.34.01 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

BAZARBAEVA AYGUL KUANISHBAEVNA

**OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINING BILIMINI SUN'iy
INTELLEKT ASOSIDA BAHOLASH METODIKASINI
TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.02 - Ta'lif va tarbiya nazariyasi va metodikasi (informatika)

**PEDAGOGIKA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of Doctor of philosophy (PhD)
on pedagogical sciences**

Bazarbaeva Aygul Kuanishbaevna

Oliy ta'lim muassalari talabalarining bilimini sun'iy intellekt asosida baholash metodikasini takomillashtirish..... 3

Базарбаева Айгул Куанышбаевна

Совершенствование методики оценки знаний студентов высших образовательных учреждений на основе искусственного интеллекта..... 27

Bazarbaeva Aygul Kuanishbaevna

Improving the methodology for assessing the knowledge of students of higher education institutions on the basis of artificial intelligence..... 51

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 55

**NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Ped.34.01 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

BAZARBAEVA AYGUL KUANISHBAEVNA

**OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINING BILIMINI SUN'iy
INTELLEKT ASOSIDA BAHOLASH METODIKASINI
TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.02- Ta'lif va tarbiya nazariyasi va metodikasi (informatika)

**PEDAGOGIKA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PHD/Ped7419 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Nukus davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.ndpi.uz) va "ZiyoNET" axborot ta'lif portalı (www.ZiyoNET.uz) da joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Seitnazarov Kuanishbay Kenesbaevich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Jo'rayev Husniddin Oltinboyevich
pedagogika fanlari doktori, professor

Fayziyev Mirzaali Asfandiyorovich
pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Nukus davlat pedagogika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Ped.34.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "18" IV soat 10⁰⁹ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 230105, Nukus shahri, P.Seitov ko'chasi raqamsiz uy). Tel.: (99861) 229-40-75; faks: (99861) 229-40-75; e-mail: nksipi_info@edu.uz

(143-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 230105, Nukus shahri, P.Seitov ko'chasi raqamsiz uy.) Tel.: (99861) 229-40-75; faks: (99861) 229-40-75.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "5" IV kuni tarqatildi.
(2025-yil "5" IV da 143 raqamli reyestr bayonnomasi).



B.P. Otemuratov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, f.-m.f.d., professor

Z.K. Kurbaniyazova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, p.f.d., professor

A.B. Kamalov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, f.-m.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahonda oliy ta’lim tizimlarini rivojlantirishga, talabalarga sifatli bilim berishga qodir mutaxassislarni taylorlashga, talabalar bilan olib boriladigan mashg‘ulotlarda ta’lim jarayonlarini boshqarishga va o‘quv jarayonida kredit-modul tizimini amalga oshirishga qaratilgan amaliy ishlarga yuksak darajada e’tibor qaratilgan. Ayniqsa, oliy ta’lim muassasalari amaliyotida o‘z ko‘rinishini topayotgan ilg‘or innovatsiyalarning kirib kelishini jadallashtirish va uni rivojlantirish masalalarini amalga oshirish, talabalar bilimlarini baholashda sun’iy intellekt usullaridan aqlona foydalanish masalalari ham alohida ahamiyatga ega masalalardan hisoblanadi. Shuning uchun ham talabalar bilimlarini intellektuallashtirilgan testlar yordamida baholash metodlaridan foydalanish, baholashning yangicha usullarini izlab topish, ishlab chiqish, amalda qo‘llash va ularni takomillashtirishga qaratilgan dolzarb masalalar o‘z ahamiyatini yuqotmagan. Talabalarning yosh va individual xususiyatlarini tobora rivojlanayotgan bozor iqtisodiyotiga moslashtirish masalalarida ham alohida natijaviylikka ega ta’limning samarali metodlarini tanlash va uni amalda foydalanishga qaratilgan ishlar ham dolzarb muammolar qatoridan joy oladi.

Dunyoda ta’lim natijaviyligi va olingen bilim sifatini baholashga doir texnologiyalarni, usullarni yaratish va ularni foydalanish, olingen natijalarni tahlil qilish, berilgan bilim mazmuni sifatini ta’minlash va uning samaradorlik darajasini takomillashtirib borish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari uzlucksiz tarzda olib borilmoqda. Shuningdek, har xil ta’lim turlari va shakllaridan foydalangan holda talabalarning fanga bo‘lgan qiziquvchanliklarini oshirib borish, intellektual salohiyatlarining rivojlanib borishiga keng yo‘l ochib berish va har xil usullar yordamida bilimlarini baholash ishlari amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, talabalar bilimlarini baholash ishlarida xolislikni ta’minlash uchun sun’iy intellekt vositalaridan amalda foydalanish, texnik vositalarni qo‘llash yordamida avtomatashtirilgan baholash mexanizmlarini amalga oshirish dolzarb vazifalarning biriga aylangan.

Mamlakatimizda ham raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt texnologiyalari yordamida talabalar bilimlarini baholashning samaradorlik darajasini oshirishga qodir bo‘lgan, mutaxassislarni tayyorlashga alohida e’tibor qaratilib kelinmoqda. Talabalarda shakllanayotgan yangi bilim, ko‘nikma va malakalarini davlatimiz va xalqaro ta’lim standarti talablariga moslashtirilgan holda takomillashtirib borish ishlari ham amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, “...ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish, Oliy ta’lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot ishlari natijadorligini oshirish, yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalg etish, ilm-fanning innovatsion infratuzilmasini shakllantirish”¹ masalalarini amalga oshirish mamlakatimizda asosiy maqsadlardan biriga aylandi. Ushbu maqsadlar

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlanish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sod Farmoni //Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019-y., 06/19/5847/3887-sod; 30.04.2020-y., 06/20/5987/0521-sod; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 09.11.2021-y., 06/21/3/1037-sod, 18.03.2022-y., 06/22/89/0227-sod; 04.07.2023-y., 06/23/107/0441-sod.

ijrosini ta'minlashga qaratilgan vazifalarning biri, talabalar bilimlarini sun'iy intellekt texnologiyalari asosida baholashga doir metodikani yaratish va undan unumli foydalanishni nazarda tutadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son "O'zbekistonning yangi rivojlanish davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi, 2017-yil 7-fevraldagagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2017-yil 20 apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son "Oliy ta'lim muassassalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayatgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2020-yil 6-oktyabrdagi PQ-4851-son "Axborot texnologiyalari sohasida ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjalarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda talabalarga astoydil bilimlar berish va ular tomonidan olingan bilimlarning mustahkamlanib borishiga imkon yaratuvshi yangi pedagogik texnologiyalaridan unumli foydalanish masalalari bo'yicha A.Abduqodirov, B.Xodjaev, N.Muslimov, U.Tolipov, J.Tolipova, M.Usmonboeva, D.Yunusova va boshqalar ilmiy-tadqiqot ishlarini olib bordi. Qat'iymas ma'lumotlar sharoitida qarorlar qabul qilish jarayonini intellektuallashtirish bo'yicha F.Abutaliev, R.Usmanov, K.Seitnazarov, R.Oteniyazov va boshqalar talabalar bilimini baholashning metodik jihatlarini o'rgandi va ulardan samarali foydalanish masalalarini ham ilmiy jihatdan tahlil qildi.

O'quv-tarbiya jarayonlariga bog'lik ilg'or kompetensiyaviy yondashuvlarni amalga oshirishga yunaltirilgan bosqichlari, natijalari, samaradorlik darajalari, ayniqsa, erishilayotgan ijobiy natijalarning Davlat ta'lim standartlari mazmunida belgilangan me'yoriy talablarga mosligi haqidagi masalalar bo'yicha F.Zakirova, Z.Kurbaniyazova, A.Pazilov, M.Allambergenova, Z.Ilyasova, J.Otepbergenov, T.Kalekeeva, B.Tlegenov, K.Kalimbetov va boshqalar o'z ilmiy-tadqiqod ishlarida e'tiborlarini qaratgan.

V.Avanesov, Y.Adler, V.Bespalko, Z.Jukovskaya, B.Kolomiets, L.Makarova,

M.Potashnik, V.Panasyuk, N.Selezneva, A.Subetto, G.Skok, M.Cherepanova, N.Taylaqov, S.Shishov kabi mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) mamlakatlaridagi olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlarida talabalar egallagan bilimlar sifatini baholashga doir murakkablashtirilgan va ko'p faktorli yondashuvlardan maqsadga muvofiq tarzda foydalanish, didaktik testlarni ishlab chiqish va amalda foydalanish, talabalardagi kompetentlikni aniqlash va uni takomillashtirib borish masalalari amalga oshirilgan.

Xorijlik olimlardan A.Subetto, V.Kalney, V.Polonskiy, N.Nikitina va boshqalar talabalarga beriladigan bilimlar sifatiga e'tibor qaratish, talabalarni yangi bilimlar bilan qurallantirish darajasini takomillashtirish, eng asosiysi, beriladigan bilimlarning natijadorligini orttirish masalalariga e' tibor qaratadi.

Hozirgi vaqtarda respublikamiz oliy ta'lif muassasalarida astoydil mehnat qilayotgan professor-o'qituvchilar o'z faoliyatları davomida doymo ta'lif sifati va natijadorligini oshirishga o'z e'tiborlarini qaratadi. Ular qo'lda bor imkoniyatlardan foydalangan holda talabalar uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni yaratishga intiladi. Ammo, "Informatika va raqamli texnologiyalar" fanini o'qitishning samaradorligini orttirish, talabalar tomonidan egallangan bilim sifatini baholashda intellektuallashtirilgan testlarni yaratish va ulardan unumli foydalanish, ulardagi payda bo'lgan lingvistik o'zgaruvchisi qiymatlarini qat'iymas matematik modellashtirish asosida qarorlar qabul qilish tizimini ishlab chiqish hozirgi kunning muhim masalalaridan biri bo'lib qolmoqda. Ushbu ko'rsatib o'tilgan masalalar oliy ta'lif muassasalari talabalarini bilan mashg'ulotlarni olib borish jarayonida ular tomonidan qabul qilingan bilimlar majmuyini sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida baholashga doir yangi metodikalarni yaratish va ularni takomillashtirib borish masalalari bo'yicha ilmiy-tadqiqod ishlarini olib borishni taqozo etadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lif muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalar bilan bog'liqligi. Ushbu tadqiqot Nukus davlat pedagogika instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasingin "Uzlusiz ta'lif tizimida Informatika fanlarini o'qitishning ilmiy-pedagogik asoslari" ilmiy yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi sun'iy intellekt asosida oliy ta'lif muassasalari talabalarining bilimini baholash metodikasini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

sun'iy intellekt algoritmlari asosida talabalar bilimini baholashning lingvistik qiymatlar to'plamining a'zolik va display funksiyalaridan foydalanish algoritmlarini aniqlashtirish;

talabalar bilimlarini baholashda xolislik, ijobiy motivatsiyani shakllantirish va bilimlar samaradorligini oshirishga mo'ljallangan Machine learning algoritmlarini arxitekturasi va foydalanish mexanizmini takomillashtirish;

test savollarining qiyinchilik darajasiga qarab moslashuvchan ko'p darajali o'lchovlarni joriy qilishda qat'iymas mantiq algoritmining lingvistik o'zgaruvchilar qiymatlarini tavsiflashga asoslangan bilimlarni baholash modelini takomillashtirish;

sun'iy intellektning piramidal algoritm strategiyasiga asoslangan, talabalarning bilim samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan intellektuallashtirilgan test dasturini

ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida oliv ta'lim muassasalari talabalarining bilimini sun'iy intellekt asosida baholash metodikasini takomillashtirish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlarida Nukus va Andijon davlat pedagogika institutlari va Farg'ona davlat universitetining 386 nafar respondent-talabalari ishtirot etdi.

Tadqiqotning predmeti sun'iy intellekt asosida oliv ta'lim muassasalari talabalarining bilimlarini baholashning metodik tizimi bilan ishlab chiqilgan innovatsion texnologiyalar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot ishimizda muammoni adekvat holatda o'rganishni ta'minlashga qaratilgan nazariy (tahliliy-sintetik, qiyosiy taqqoslash, analiz, sintez), diagnostik (anketa, kuzatish, test, suhbat), prognostik (ekspert baholash, mustaqil baholarni umumlashtirish) va pedagogik eksperiment (talabalar bilimlarini baholashni intellektuallashtirilgan test asosida shakllantirish va sinovdan o'tkazish, ma'lumotlarni statistik qayta ishslash, natijalarni grafik tasvirlash) kabi usullar majmuidan foydalanildi.

Tadqiqot ishimizning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

talaba egallagan bilim darajasini sun'iy intellekt algoritmlari asosida baholashning lingvistik o'zgaruvchi qiymatlarini tavsiflovchi to'plamlarning a'zolik va display funksiyalaridan foydalangan holda mavzu shkalasini universalga o'tkazish algoritmi aniqlashtirilgan;

bilimlarni baholashda xolislik, har qadamda ijobiy motivatsiyani shakllantirish va o'zlashtirilgan bilimlarning samaradorligini oshirishni ta'minlovchi intellektuallashtirilgan test topshiriqlarini sun'iy intellektning Machine learning algoritmi asosida bilimlarni baholash dastur arxitekturasi va foydalanish mexanizmi takomillashtirilgan;

test savollarining qiyinchilik darajasiga qarab moslashuvchan ko'p darajali o'lchovlarni joriy qilish, bilimlarni baholash algoritmlaridan foydalanish mexanizmi va qat'iymas mantiq algoritmining lingvistik o'zgaruvchilar qiymatlarini tavsiflovchi qat'iymas to'plamlarning a'zolik funksiyasiga asoslangan bilimlarni baholash modeli takomillashtirilgan.

turli darajadagi murakkab vazifalarni bajaruvchi ko'p bosqichli adaptiv o'lchovlarni soddalashtirishga yo'naltirilgan sun'iy intellektning piramidalni strategiyasiga asoslangan talabalarning bilim darajasini baholashga mo'ljallangan intellektuallashtirilgan testning dasturiy ta'minoti ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

OTM talabalarining bilim sifatini astoydil baholashga imkon beruvchi metodikalarni aniqlaydigan va kuchaytiradigan, intellektullashtirilgan testlar yaratishga doir amaliy taklif va tavsiyalardan aniq fanlar bo'yicha elektron darslik va metodik qo'llanmalarni, ularning ilovalarini yaratishda va o'quv jarayoniga joriy etish ishlarini amalga oshirishga tadbiq qilingan;

OTMdagi talabalar bilimlarini su'niy intellekt asosida baholashga doir "Oliy ta'lim muassasasalarida talabalar bilimini baholashning piramida usuli" nomli DGU 24144-raqamli dastur ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqod ishimizda foydalanilgan matematik algoritmlar va ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, ishlab

chiqilgan algoritmlarning tajriba-sinov ishlari jarayonida qo'llanilganligi, keltirilgan tahlillar samaradorligi matematik-statistik usullar yordamida aniqlanganligi, xulosa va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi va keltirilgan algoritmlar asosida dasturiy ta'minotlarimizning samaradorlik darajasining ortganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati “Informatika va raqamli texnologiya” fanidan talabalarning bilimlarini sun’iy intellekt algoritmlariga asoslangan holda baholash metodikasining xalqaro tajribalarga tayanilib, kredit-modul tizimining asosiy tamoyillariga ustuvorlik berilib ishlab chiqilganligi, natijada talabalar bilimlarini baholashning qat’iymas matematik yondashuv asosida takomillashtirilganligi, talabalar tomonidan egallangan bilim darajalarining lingvistik o’zgaruvchisi qiymatlarini tavsiflovchi qat’iymas to‘plamlarning a’zolik funksiyalaridan foydalangan holda, asosiy mavzudan universalga va universaldan asosiy mavzuga o’tish, ta’lim sifatini baholashda intellektuallashtirilgan test variantlarining takomillashtirilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati talabalarning bilim sifatini oshirishga doir baholash jarayonida xalqaro tajribalardan foydalanilganligi, OTMda “Informatika va raqamli texnologiya” fanini o’qitishning samaradorlik darajasini oshirish va talabalar bilimlarini baholash tizimining qat’iymas yondashuv asosida, takomillashtirilgan shaklda olib borilganligi, ushbu fan bo‘yicha mashg‘ulotlarni olib borish va baholash muammolarining aniqlanganligi, tahlil qilinganligi, ta’lim sifatini baholashda qat’iymas-matematik modellashtirishning samaradorlik darajasini va talabalar bilimlarini baholashda intellektuallashtirilgan testlardan foydalanish imkoniyatlarining ortib borganligi bilan belgilanadi..

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Oliy ta’lim muassasalarini talabalaring bilimini sun’iy intellekt asosida baholash metodikasini takomillashtirish yuzasidan amalga oshirilgan tadqiqod ishlari doirasida ishlab chiqilgan uslubiy va amaliy takliflarimiz asosida:

oliy ta’limda professor-o’qituvchilar faoliyatining samaradorlik darajasining kredit modul tizimiiga asoslangan standart diagrammasi va talaba yoshlarining bilimlarini baholashda qat’iymas matematik modellashtirish metodlari asosida bilimlar sifatini baholash modelini ishlab chiqishga qaratilgan takliflarimiz “Python programmalasturiw tili” nomli darslik mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 4-martdagи 55-son buyrug‘i, 199899-raqamli ruxsatnomasi). Natijada talabalar bilimini baholashni su’niy intellekt algortimlariga asoslangan test topshiriqlarini ishlab chiqishga sharoit yaratilgan;

qat’iymas ma’lumotlarning ko‘pligi sharayotida OTM talabalarning leksiya, amaliy va seminar mashg‘ulotlaridan o’zlashtirish ko‘rsatkichlarini monitoring qilish, talabalar bilimlarini sun’iy intellekt algoritmlari asosida baholash modelini, algoritmlarini shakllantirishning o’ziga xos xususiyatlaridan, xorijiy tajiriylariga asoslangan baholash mezonlari va texnologiyalaridan va su’niy intellekt algoritmlaridan foydalangan holda testlar tuzish asosida aniqlikni kuchaytirish dasturini loyihalashtirishga oid takliflardan “Evropa ham jamiyatining Erasmus

plus ERASMUS-EDU-2022-101082242-raqamli “I2-PLEDGE”” (2023-2024 yy.) mavzusidagi xalqaro loyihasini bajarishda foydalanilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2024-yil 29-oktyabrdagi 11-05-6198/04-son dalolatnomasi). Natijada bilimlarni su’niy intellekt asosida baholash algoritmlarini takomillashtirish modelini ishlab chiqish samarodorligi oshirilgan va oliy ta’lim muassasalari talabalarining bilimini sun’iy intellekt asosida baholash algoritmlarini takomillashtirishning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlashtirish imkonini kengaytirilgan;

OTM talabalarining bilim darajalarining samaradorligini aniqlashga qaratilgan, bilimlarni baholashga oid intellektuallashtirilgan testlar va takomillashtirilgan algoritmlar asosida dasturiy, metodik majmular ishlab chiqishga oid takliflarimiz “Python programmalastiriw tili” nomli darslik mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 4-martdagи 55-son buyrug‘i, 199899 raqamli ruxsatnomasi). Natijada talabalarning bilimini baholashga doir sun’iy intellekt algortmlariga asoslangan intellektuallashtirilgan test dasturini ishlab chiqish texnologiyasini takomillashtirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o’tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 21 ta ilmiy ish, 1ta darslik chop etilgan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta maqola, jumladan 7 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, 113 sahifa matn, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbliji asoslangan, muammoning o‘rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqot ishining maqsadi, vazifalari, ob’ekti va predmeti aniqlangan, tadqiqotning fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo‘nalishlarga mosligi, ilmiy yangiligi va natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi va e’lon qilinganligi, tadqiqot ishining tuzilishi haqida ma’lumotlar kiritilgan.

Dissertatsiyaning “**Oliy ta’lim muassasalari talabalarining bilimlarini baholash tizimini sun’iy intellekt asosida tashkillashtirishning ilmiy-nazariy asoslari**” deb nomlangan birinchi bobida OTM talabalarining bilim sifatini oshirishda sun’iy intellektdan foydalanishning ilmiy-pedagogik va metodologik asoslari, OTM talabalarining bilimlarini kredit-modul tizimida baholashga doir xalqaro tajribalar, OTMdа ta’lim sifatini taminlashga qaratilgan kredit-modul tizimlari va undan foydalanish afzalliklari haqida yoritilgan.

Ta’lim tizimini rivojlantirish, ta’lim sifatini orttirish, ta’limda kredit-modul tizimini joriy etish ta’lim va axborot texnologiyalaridan kengroq foydalanish, ta’lim sifati shaxs shakllanishining barcha bosqichlari, o‘quv-tarbiya jarayonining shartlari

va natijalari, shuningdek, ta’lim muassasasining samaradorligi, erishilgan natijalarning me’yoriy talablariga, ijtimoiy va shaxsiy fikirlarga muvofiqligi uchun mezon sifatida qaraladigan kompleks ko‘rsatkich masalalari bo‘yicha MDH mamlakatlari olimlaridan V.Avanesov, Y. Adler, V.Belobra-gin, V.Bespalko, Z.Jukovskaya, B. Kolomiets, LMakarova, M. Potashnik, V.Panasyuk, N.Selezneva, A.Subetto, G.Skok, V.Cherepanov, S. Shishov va boshqalar ilmiy izlanishlar olib borgan.

Oliy ta’lim muassasasida ta’lim sifatini baholashning asosiy yo‘nalishlari murakkab ko‘p faktorli yondashuvdan foydalanish bilan bog‘liqligini, baholash mezonlarini yaratish, baholashda sifat ko‘rsatkichini ko‘tarish va baholashda qattiymas matematik algoritmlaridan foydalanish, shuningdek, erishilgan natijalar tahlili ta’limi sifati muammolari bo‘yicha V.Bolotov, G.Bordovskiy, E. Gevorkyan, G.Motova, N.Selezneva, A.Subetto, V.Bolotov, S. Shishov, V.Kalney, V.Panasyuk, V.Polonskiy, N.Nikitin va boshqalar ilmiy izlanishlar olib borishgan.

III Renessans davridagi jamiyatimizning axborotlashuvga yo‘naltirilgan sharoitlarini hisobga olgan o‘zbekistonlik olimlardan A.O‘rishev, E.Kamolov, A.Xurramov, U.Nuraliev, S.Zuparova, Y.Djurayeva, G‘.Orazova va G.Qayumovalar o‘zlarining ilmiy-tadqiqod ishlarida ta’lim texnologiyalarining ta’lim sifatini oshirishda yangi mezonlarni yaratish va talabalarning individuallagini ta’minalash imkoniyatlarni ko‘rsatib o‘tgan.

O‘quv jarayoniga sun’iy intellektni joriy etish masalalari va hozirgi vaqtarda qo‘llanilayotgan ilg‘or texnologiyalar, shuningdek, sun’iy intellekt algoritmlaridan ta’limni raqamlashtirishda foydalanish imkoniyatlarni tahlil qilish natijasida o‘z ko‘rinishini topadigan neyron tarmoqlar, sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’lim jarayonida qo‘llanilishi va uni rivojlantirish zarurligi haqidagi muammolarni yechish ishlari M.Bulaeva, M.Vayndorf-Sysoeva, A.Gushchin, T.Lebedeva, K.Syabitova, Yu.Petrov, va O.Filatova kabi olimlarning tadqiqod ishlarida har tomonlama ko‘rib chiqilgan.

Hozirgi vaqtida deyarli barcha oliy o‘quv yurtlari kompyuterlar bilan jihozlangan, o‘z mahalliy tarmoqlari, Internet tarmog‘iga ularish imkoniyati mayjud bo‘lib , bu o‘qitishning an`anaviy usullaridan va olingan bilimlarni baholashdan yangi o‘qitish texnologiyalariga o‘tish imkonini beradi. Bilimlarni qisqa muddatli bilimlarni tashkil etish, ushbu jarayonda o‘qituvchining rolini aks ettiruvchi bilimlarni nazorat qilish shaklini rivojlanishini besh bosqichga ajratish mumkin:

an`anaviy bilimlarni nazorat qilish;

qog‘oz (kompyuter emas) vositalar yordamida bilimlarni nazorat qilish;

texnik qurilmalar yordamida bilimlarni nazorat qilish;


bilimlarni kompyuterda boshqarish;

bilimlarni masofadan boshqarish.

OTMning kredit-modul tizimiga o‘tishi eng dolzarb masalalardan biri bo‘lib kelmoqda. O‘quv jarayonini tashkil etishning kredit-modul tizimi atamasi ostida modulli o‘qitish texnologiyalari va kredit ta’lim birliklaridan foydalanishga asoslangan o‘quv jarayonini tashkil etishning yangi modeli (kreditlar) ko‘rib chiqiladi. Intellektuallashtirilgan baholash tizimiga moslashgan kredit-modul tizimining joriy etilishi o‘qituvchilar mehnati xarakterini va o‘quv jarayonining intensivligini sezilarli

darajada o‘zgartiradi va ta’lim tizimini xalqaro hamkorlik integratsiyasini taminlash bilan birga ta’limning barcha shakllarini nazorat qilishni o‘z ichiga oladi. Bunday kredit tizimi o‘quv jarayonida o‘qilgan soatlar sonini emas, balki erishilgan natijani ko‘rsatadi.

Intellektuallashtirilgan test tizimi shakllangan kreditning o‘quv jarayonida tutgan o‘rni va unga bog‘liq elementlar quyidagi diagrammada ko‘rsatilgan (1-rasmga qaran).



1-rasm. Intellektuallashtirilgan test tizimi shakllangan kreditning o‘quv jarayonida tutgan o‘rni va unga bog‘liq elementlari tuzilmasi

Ushbu tadqiqot doirasida oliy ta’lim sifatini baholashning mavjud mazmunligumanitar va rasmiy-mantiqiy yo‘nalishlari tahlil qilindi:

o‘quv jarayonini sifatli tahlil qilish;

ularning tarkibiy o‘zgarishlarini qat’iy va aniq qayd etish (o‘zgarishlarni miqdoriy jihatdan aks ettiradigan matematik modellarni yaratish asosida pedagogik tizimlar va jarayonlarni o‘rganish bilan tavsiflanadi).

“Ta’lim sifatini tadqiq qilishda asosan”...matematik usullar ko‘rib chiqiladi, oliy ta’lim muassasasida ta’lim sifatini baholash uchun matematik usullardan foydalanish ta’lim tizimlarining rivojlanishining asosiy shartlaridan biri sifatida qaralishi mumkin, chunki u yangi ta’lim sifatiga erishishga olib keladigan tizimga yo‘naltirilgan boshqaruva ta’sirini kiritish imkonini beradi. Bundan tashqari, ta’lim sifatining ijtimoiy normasi sifatida ta’lim standarti mavjud bo‘lganligi sababli, matematik modellar va usullar ta’lim natijalarining qabul qilingan me’yorlarga muvofiqligini ob’ektiv va tezkor tashxislashga qodir bo‘lgan texnologik vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ta’lim sifati tadqiqoti shuni ko‘rsatdiki, ta’lim sifatini baholash tizimida matematik modellashtirish usullarini qo‘llashning birinchi vazifalaridan biri pedagogik hodisalarning sub’ektiv sifat tavsiflaridan qat’iy nazar miqdoriy tavsifga o‘tishni ko‘rsatadi.


Ta’lim sifati tadqiqoti shuni ko‘rsatdiki, ta’lim sifatini baholash tizimida matematik modellashtirish usullarini qo‘llashning birinchi vazifalaridan biri pedagogik hodisalarning sub’ektiv sifat tavsiflaridan qat’iy nazar miqdoriy tavsifga o‘tishni ko‘rsatadi. Yevropa olimlari B.Kolomiets, M.Cherepanova, A.Subetto,

N.Selezneva, M.Chelishkova, A.Miroshnichenko, Y.Tatur asarlarida pedagogik jarayonlar va hodisalarining sifatini miqdoriy tavsiflashga qaratilgan kvalimetrik yondashuvning metodologik asoslari aniqlandi.

Sifatlari tavsiflardan qat'iy miqdoriy tavsifga o'tish muammosini hal qilishning asosiy yo'naliishi sifatida kam rasmiylashtirilgan axborotni tahlil qilish muammolarini hal qilish sharoitida oliy ta'limga sifatining turli ko'rsatkichlarini baholashning samarali usullarini ishlab chiqishni ko'rib chiqamiz. Ushbu yo'naliish amaliy matematika doirasida rivojlanayotgan qat'iymas modellashtirish hisoblanadi. Ushbu turdagi modellashtirish ta'limga faoliyati uchun ko'proq mos keladi va inson omilini plastik hisobga olish imkonini beradi va ekspertlarning bilim va tushunchalarini rasmiylashtirish uchun yanada moslashuvchan usulni taklif etadi. Qat'iymas simulyatsiya qiymatlari tabiiy tilda ifodalangan lingvistik o'zgaruvchilardan foydalanish orqali sifat ko'rsatkichlarini aks ettiruvchi ma'lumotlarni qayta ishlashga imkon beradi.

Tadqiqot davomida matematik modellashtirish vositalari yordamida oliy ta'limga ta'limga sifatini baholash modeli yaratildi va nazariy jihatdan oqlandi. Modelni qurish uchun, yahlit tizimi yondashuvlar, pedagogik malakalarning qoidalari va loyiha modellashtirish metodologiyasi nuqtai nazaridan kelib to'xtaldik.

Modelning tuzilishi OTMdagi ta'limga mezonlari va sifat ko'rsatkichlarining ierarxik tizimi hisoblanadi. Tizimning ishlashi loyha mantiqiy xulosa algoritmlari va ushbu sohadagi ekspertlarning bilimlarini umumlashtiradigan qoidalari bazasi asosida indikatorlarning qadriyatlarini qayta ishlashga imkon beruvchi loyha simulyatsiya usullari va vositalari to'plami bilan belgilanadi. Oliy ta'limga sifatini baholash modeli keltirilgan (2-rasmga qarang).




2-rasm. Ta'limga sifatini baholash modeli tuzilmasi

Oliy ta'limga sifatini baholash modeli yuqoridagi sxema bo'yicha dastlabki ikkita blok modelning tuzilishini aks ettiradi. OTMdagi ta'limga sifati ko'rsatkichlarining ierarxik tizimi, uning barcha xususiyatlarini to'liq aks ettiradi, undan x_1, x_2, \dots, x_n baholangan parametrlar to'plami ajratiladi..., x_n . Modelning maqsadli komponenti-chiqish soni o'zgaruvchisi Y (ta'limga sifatini miqdoriy baholash). Modelning funksional komponenti diagrammada loyha modellashtirish usullari to'plamini o'z ichiga olgan umumiyligi blok shaklida tasvirlangan.


“Modelning ishslash algoritmi “qora quti” tamoyili bo‘yicha ishlaydi: kirish miqdoriy (aniq) qiymatlarni oladi, chiqishda miqdoriy (aniq) qiymatlarni olamiz va oraliq bosqichlarda loyha mantiq apparati va odatiy raqamlar ma’lumotlarni manipulyatsiya qilishga imkon beruvchi loyha to‘plamlar nazariyasi qo‘llaniladi, lekin ayni paytda loyha tizimlar tomonidan taqdim etilgan moslashuvchan imkoniyatlardan foydalanib chiqish.

Dissertatsiyaning **“Oliy ta’lim muassasalari talabalari bilim sifatini sun’iy intellekt asosida baholash metodikasini takomillash-tirish va uni intellektuallashtirilgan testlar asosida modellashtirish”** deb nomlangan ikkinchi bobida OTMdaklar bilimlarini baholash metodikasini qat’iymas matematik yondashuv asosida takomillashtirish, OTM talabalar bilim sifatini baholash metodikasini foydalanishda qat’iymas-matematik modellashtirishning samarodorligi, OTM talabalar bilimlarini intellektuallashtirilgan testlar asosida baholash metodikasi mazmuni yoritilgan.

Kelajak kadrlarni tayorlashda talabalarini zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish, ularda mustaqil o‘qishga bulgan ko‘nikmalarni shakllantirib borish, shuningdek, talabalar tomonidan qabul qilib olingan bilimlarni mustaqil tarzda ijodkorana qo‘llay bilish jarayonlar bilan holatini tavsiflash uchun “Talabalar tomonidan olingan bilim darajasi”ning lingvistik o‘zgaruvchisi “past”, “o‘rta” va “yuqori” atamalari bilan ishlatiladi. Tasavvur qilaylik, mutaxassislar so‘rovi natijasida bu lingvistik o‘zgaruvchilar uchun tegishli qat’iy bo‘limgan to‘plamlarning a’zolik funktsiyalari qurilgan (3-rasmga qarang). Agar olingan bilimlarning minimal bahosi Evropa ECTS tizimi bo‘yicha E, maksimal bahosi esa A bo‘lsa, hozirgi sharoitda “vaziyat-harakat” tipidagi qat’iy bo‘limgan boshqaruv modelini qo‘llash eng maqbul yechim bo‘ladi. Ushbu model ishlab chiqarish tizimi tamoyiliga asoslanib, ma’lum bir kirish holati uchun zarur bo‘lgan boshqaruv qarorlarini belgilaydi. Ishlab chiqarish tizimi har bir kirish holatiga mos ma’lumotnomani topib, kirishga eng yaqin bo‘lgan holatga asoslangan boshqaruv qarorini belgilaydi, bunda ma’lumotnomalar vaziyatlari to‘plami boshqaruv ob’ektining barcha mumkin bo‘lgan holatlarini ifodalaydi.



3-rasm. Talabaning E dan A gacha bo‘lgan balli “Talabalar egallagan bilim darajasi”ning lingvistik o‘zgaruvchisi qiymatlarini tavsiflovchi qat’iymas to‘plamlarning a’zolik funktsiyalari



4-rasm. Displey funktsiyalaridan foydalangan holda mavzu shkalasidan universalga va aksincha o‘tish


Mutaxassislikka ajratish amaliyoti tez-tez uchrab turishi natijasida talabalar

olgan bilim darajasini baholash zarurati yuzaga keladi. Natijada, o'qishdan yuqori ko'rsatkichlarga erishgan talabalarning bilim darajasini D yoki A baholaridan foydalanib baholash qiyin kechadi. Buning natijasida, talabalarning o'zlashtirgan bilim darajasini ifodalovchi "bilim darjasasi" lingvistik o'zgaruvchisi uchun yangilangan, belgilangan to'plamni yaratish va ularga yangi a'zolik funktsiyalarini ishlab chiqish ehtiyoji tug'iladi. Buning uchun mutaxassislardan yangi so'rovnoma o'tkazish talab etiladi, bu esa yangi funktsiyalarni qurishda aniqroq ma'lumotlar olish imkonini beradi.

OTMlarida ta'lif sifatini baholash jarayonida yuqoridagi misolga asoslanib universal shkala doirasida "bilim darjasasi" lingvistik o'zgaruvchisi ishlab chiqiladi(4-rasm). Baholash jarayoni minimal ruxsat etilgan baholash mezonlariga javob berishi kerak, shuning uchun ikkita xaritalash funktsiyasi π_1 va π_2 , A-E va A-C baholash diapazonlari uchun mos ravishda ishlab chiqilgan

Yangi display funktsiyasi, universal shkala tushunchalarining mavzu shkalasi nuqtalari bilan muvofiqligini aniqlash uchun ekspert so'rovnomasini natijasida belgilanadi. Bunday so'rovnoma o'tkazish ko'p vaqt va mehnat talab qilmaydi. Qat'iy bo'limgan modelning adekvatligini ta'minlashda, asosiy atama to'plamini sozlash faqat display funktsiyasini sozlash bilan cheklanmaydi. Bunday vaziyatlarda yangi sharoitlarda lingvistik o'zgaruvchining qiymatlarini ifodalovchi qat'iy bo'limgan to'plamlarning a'zolik funktsiyalarini yaratish uchun yangi ekspert so'rovnomasini o'tkazilishi tavsiya etiladi.

Bilimlarni o'zlashtirishini nazoratning sun'iy intellekt asosida baholash varianti o'qituvchi faoliyatini rejalashtirish, tekshirishni differensasiyalash, tizimli nazoratni amalga oshirish, sust o'zlashtiruvchilarning, ularning bilimlaridagi nuqsonlarni bartaraf qilgan holda hazoratni uyg'unlashtirish imkonini beradi. Baholash quyidagi kriteriyalar bo'yicha o'tkaziladi: to'g'ri javoblar 60% dan kam bo'lgan holda 2 baho, 60% dan 70% gacha bo'lgan holda 3 baho, 70% dan 90% gacha bo'lgan holda 4 baho, 90% va undan ortiq bo'lsa 5 baho. Keling, bilimlarni baholash tartibini tavsiflaylik (5-rasmga qarang).



5-rasm. Bilimlarni baholash tartibi

Birinchi bosqichda talaba ochiq savollarga javob beradi. Bu savollar kursning asosiy tushunchalariga, masalan, ta'riflarga oid bo‘lishi mumkin. Agar talaba taklif qilingan variantlardan 60% yoki undan ko‘p savollarga to‘g‘ri javob bersa, uning bilimi “qoniqarli” deb baholanadi. Talabaning vazifasi — berilgan bir nechta variant orasidan to‘g‘ri javobni tanlash. Agar test topshirilmagan bo‘lsa, talabaning bilimlari “qoniqarsiz” deb baholanadi. Testdan “qoniqarli” baho olgan talaba o‘z bahosini “yaxshi” darajaga oshirishi mumkin. “Yaxshi” baho olish uchun talaba ochiq va yopiq savollardan iborat testdan o‘tishi kerak. Ushbu testda talaba olgan bilimlarini qanday qo‘llashni namoyish etishi lozim. Shu sababli, ikkinchi bosqich testlarini tuzishda quyidagi turdagি savollar qo‘llaniladi:

dasturning ma’lum bir qismidagi buyruqlarni tasodifiy ketma-ketlikda joylashtirish;

berilgan parchani bajarish natijasini bashorat qilish va qo‘sishimchalar kiritish;

odatdagи dastur yoki prosedura uchun blok-sxema yaratish, elementlar to‘plami bilan ishslash.

“Yaxshi” sinovdan muvaffaqiyatli o‘tgan talaba “a’lo” bahoga erishishi mumkin. Buning uchun an'anaviy, yozma shaklda imtihon topshirish talab etiladi. Tajriba shuni ko‘rsatadiki, a’lo baho olish uchun, masalan, ataylab kiritilgan xatolar bilan ilmiy maqola parchasi taqdim etilishi mumkin. Bunday hollarda, “qoniqarli” va “yaxshi” baholar uchun savollardagi javob variantlari soni hali ochiq qoladi. Testdagi savollar soni N ga teng bo‘lib, variantlar shunchalik ko‘p bo‘lishi kerakki, o‘quvchi tasodifan 60% yoki undan ko‘p to‘g‘ri javoblarni tanlay olmasin. Faraz qilaylik, ijobiy baho olish uchun testda kamida olti yoki undan ko‘p to‘g‘ri javob kerak bo‘ladi. Bernulli teoremasiga ko‘ra, ijobiy baho olish ehtimoli testlar ketma-ketligida aniqlanadi.

$$P_n = \sum_{i=6}^n C_n^i p^i q^{n-i}, \quad (1)$$

bu yerda i - «to‘g‘ri taxmin qilingan» javoblar soni, 6, 7, 8, 9 yoki 10 ga teng. Savollarning har birida to‘rtta javob bo‘lishi mumkin va ulardan faqat bittasi to‘g‘ri. U holda har bir savolda to‘g‘ri javobni taxmin qilish ehtimoli $p = 0,25$ va shunga ko‘ra $q = 0,25$ ni taxmin qilmaslik ehtimoli.


Bernulli formulasida almashtirilgandan so‘ng biz quyidagilarni olamiz:

$$P_n = \frac{20686}{4^{10}} \cong 0,0197 \quad (2)$$

Shunday qilib, yuzta talabadan ikkitasining tasodifiy javob berish orqali ijobiy baho olish ehtimoli mavjud. Boshqacha qilib aytganda, bilimlarni yuqori darajada ishonch bilan baholash uchun o‘nta savoldan iborat testni o‘tkazish yetarli.

O‘z navbatida, ko‘p bosqichli moslashuvchan o‘lchash strategiyalari moslashuvchan o‘lchov vositalari qanday yaratilishiga qarab, belgilangan va moslashuvchan strategiyalarga bo‘linadi. Agar barcha talabalar uchun bir xil to‘plam, qiyinchilik o‘qidagi o‘lchov vositalarining belgilangan holatlari bilan qo‘llanilsa, lekin har biri oldingi qadam natijalariga qarab to‘plam bo‘ylab harakat qilsa, bu o‘lchov strategiyasi determinatsiyalangan deb hisoblanadi. To‘plamdagи qiyinchilikni o‘lchash asboblari odatda bir-biridan teng masofada joylashtiriladi yoki


qiyinchilikning o'sishiga mos ravishda pastga tushishni tanlab, talaba uchun taraqqiyot tezligini moslashtiradi. Ushbu dissertatsiyada biz qat'iy strategiya bilan bog'liq eng keng tarqalgan strategiyani tasvirlab beramiz.




6-rasm. Oliy ta'lif muassasalarini talabalarining bilimini sun'iy intellekt asosida baholash algoritmlarini takomillashtirish modeli

Piramida strategiyasi - bu ta'lif jarayonida barcha talabalar o'rtacha qiyinlikdagi topshiriqlardan boshlanishini ta'minlaydigan usuldir. Agar talaba

to‘g‘ri javob bersa, unga keyingi darajadagi qiyinchilikdagi topshiriq taqdim etiladi. Agar talaba noto‘g‘ri javob bersa, unga yanada qiyin topshiriq beriladi. Ushbu jarayon, talaba kerakli miqdordagi to‘g‘ri javoblarni beraguncha takrorlanadi. Piramida strategiyasini amalga oshirish uchun har bir qiyinchilik darjasasi bo‘yicha elementlar soni oldindan belgilangan o‘lchov qadamlari bilan aniqlanishi kerak (bu esa qiyinchilik darjalari soni bilan bir xil bo‘ladi).



7-rasm. 10 bosqichli o'lchov uchun vazifalarini taqsimlash



8-rasm. 9 Bosqichli o'lchov uchun vazifalarini taqsimlash

7-rasmida 55 ta elementdan iborat 10 bosqichli o'lchov namunasi ko‘rsatilgan. Boshida talabaga o‘rtacha qiyinchilikdagi (5-darajali) topshiriq beriladi. Ikkinci bosqichda unga 5 yoki 6-darajali topshiriq berilishi mumkin. Shubhasiz, har bir bosqichda turli xil vazifalar berilishi mumkin, ularning murakkablik darjasasi o‘tgan qadam soniga to‘g‘ri keladi. Agar testda 10 ta qiyinchilik darjasidagi topshiriqlar mavjud bo‘lsa, unda umuman olganda har bir test predmetiga testga kiritilgan 55 ta topshiriqdan 10 tasi beriladi.

Shuni ta’kidlash kerakki, har bir murakkablik darjasidagi piramida strategiyasi ma’lum miqdordagi vazifalarini talab qiladi (7-rasmga qarang). Eng ko‘p sonli vazifalar (qiyinchilik darjalari soniga teng) ikkinchi darajali bosqichga jalg qilinishi mumkin. Eng yuqori darajada faqat bitta element ishlatiladi. Qo‘shni darjalarda vazifalar soni 2 ga farq qiladi (o‘rta darajaga qo‘shni darjalalar bundan mustasno). Ko‘rinib turibdiki, birinchi bosqichda - 2 ta, ikkinchisida - 4 ta, uchinchisida - 6 ta va boshqalar talab qilinadi. Oxirgi bosqichda 1 ta vazifa, oxirgi bosqichda - 3 ta vazifa va boshqalar ishlatiladi (7-rasmga qarang).

1-Jadval


Piramida strategiyasining har bir darjasidagi vazifalar soni

Qiyinchilik darjasasi raqami	Vazifalarining umumiyl soni	Tegishli raqam darjasidagi savollar																			
		1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19	20
5	15	2	4	5	3	1															
6	21	2	4	6	5	3	1														
7	28	2	4	6	8	5	3	1													
8	36	2	4	6	8	7	5	3	1												
9	45	2	4	6	8	9	7	5	3	1											
10	55	2	4	6	8	10	9	7	5	3	1										
11	66	2	4	6	8	10	11	9	7	5	3	1									
12	78	2	4	6	8	10	12	11	9	7	5	3	1								

13	91	2	4	6	8	10	12	13	11	9	7	5	3	1					
14	105	2	4	6	8	10	12	14	13	11	9	7	5	3	1				
15	120	2	4	6	8	10	12	14	16	13	11	9	7	5	3	1			
16	136	2	4	6	8	10	12	14	16	15	13	11	9	7	5	3	1		
17	153	2	4	6	8	10	12	14	16	17	15	13	11	9	7	5	3	1	
18	171	2	4	6	8	10	12	14	16	18	17	15	13	11	9	7	5	3	1
19	190	2	4	6	8	10	12	14	16	18	19	17	15	13	11	9	7	5	3
20	210	2	4	6	8	10	12	14	16	18	20	19	17	15	13	11	9	7	5

1-jadvalda har bir darajadagi elementlarning soni va o‘lchov qadamlari sonining turli qiymatlari uchun umuman testda ko‘rsatilgan. Piramida strategiyasidan faqat turli darajadagi murakkablikdagi ko‘p sonli vazifalar taqdim etilgan taqdirdagina foydalanish mumkinligi aniq. Biroq, bu ko‘p bosqichli adaptiv o‘lchovlarni soddalashtirilgan tushunishga mos keladi.


